

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.S.Turdiyev	
O'rta asr mutafakkirlarining jamiyat ideosferasi yangilanishi to'g'risidagi falsafiy qarashlar tahlili	182
B.E.Xusanov	
Tarbiya klasterlarining estetik tamoyillari	187
F.M.O'sarov	
Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi va unda jamoat xavfsizligini ta'minlash mezonlari	190
F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatidagi transformasiya jarayonlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	193
Sh.Sh.Dadaxanov	
O'zbekistonda ichki ishlar idoralari faoliyatida xalq manfaatlarini tamoyilini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari	201

SIYOSAT

J.Q.Yusubov	
Davlat xizmatida yetuk kadrlarni shakllanishi – mamlakat taraqqiyotining asosi	206
B.Yalgashev	
“Siyosiy falsafa” va “Siyosat falsafasi” o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari.....	210
A.Xamdamiyov	
Fuqarolik jamiyati bilan bog'liq zamonaviy konsepsiyalarning mohiyati	214

TARIX

B.A.Usmonov	
Amir Temurning Xitoy yurishiga oid ba'zi mulohazalar	219
A.H.Адигезалов	
Сотрудничество Узбекистана и Азербайджана в рамках гууам	224
F.X.Utayeva, M.A.Muxamedjonova	
To'qimachilik sanoatining rivojlanishida xotin-qizlarning o'rni	231
A.H.Boltayev	
V.A.Shishkinning shaxsiy arxiviga bir nazar	235
G'.R.Mirzayev	
Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida O'zbekistonning yaqin qo'shnichilik va o'zaro ishonchga asoslangan hamkorligi	239
O.N.Nasirov	
Mustaqillikning dastlabki davrida O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarni shakllanishi	249
O.I.Rajabov	
Shifobaxshlik xususiyatiga ega bo'lgan ziyoratgohlar	253
П.Х.Исмоилова	
Деятельность отделения русско-азиатского банка в туркестане в конце XIX в начале XX века	257
H.S.Yusupov	
Otaniyoz Xo'janiyoz o'g'li Niyoziyning mudarrislik faoliyati	262
Sh.Y.Oxunjonova	
Toshkent shahri bozorlarida savdo va xizmat ko'rsatishda band bo'lgan aholining ijtimoiy tarkibi haqida ayrim fikr-mulohazalar (1990-2024 yillar).....	265
A.R.Nurmatov, D.X.Boyyeddayev	
Imom al-Buxoriy- buyuk muhaddis olim.....	272
П.Х.Исмоилова	
Банковская деятельность в Ферганской долине: возникновение и ее предпосылки в XIX—XX веках.....	276
G.X.Xasanboyeva	
O'zbekistonda qishloq xo'jaligidagi sug'orish tizimi haqida ayrim fikr-mulohazalar (1950-1970 yillar).....	281

“SIYOSIY FALSAFA” VA “SIYOSAT FALSAFASI” O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIK MASALALARI**ВОПРОСЫ ВЗАИМОСВЯЗИ "ПОЛИТИЧЕСКОЙ ФИЛОСОФИИ" И "ФИЛОСОФИИ ПОЛИТИКИ"****QUESTIONS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN "POLITICAL PHILOSOPHY" AND "PHILOSOPHY OF POLITICS"****Bunyod Yalgashev¹**¹Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi o‘qituvchisi**Annotatsiya**

Mazkur maqolada “siyosat falsafasi” va “siyosiy falsafa” tushunchalari o‘rtasidagi bog‘liq masalalari, ularning fundamental mohiyati tahlil etilgan. Shuningdek, siyosiy falsafani rivojlanishida N.Machiavelli, T.Gobbs, J.Lokk, Monteske, I.Kant, Gegel, J.S.Mill va boshqa faylasuflarning qarashlari o‘rganilgan. Bundan tashqari, O‘zbekistonda siyosat falsafasi fanini rivojlantirish hamda siyosatshunos kadrlar uchun zarur siyosiy adabiyotlar masalasiga ham to‘xtalib o‘tilgan.

Аннотация

В данной статье анализируются вопросы, связанные с понятиями «Политическая философия» и «Политическая философия», а также их фундаментальная природа. Также в развитии политической философии изучались взгляды Н. Макиавелли, Т. Гоббса, Дж. Локка, Монтеске, И. Канта, Гегеля, Дж. С. Милля и других философов. Кроме того, также было затронуто развитие науки политической философии в Узбекистане и вопрос необходимой политической литературы для политологов.

Abstract

This article analyzes issues related to the concepts of “Political Philosophy” and “Political Philosophy”, as well as their fundamental nature. Also in the development of political philosophy, the views of N. Machiavelli, T. Hobbes, J. Locke, Montesquieu, I. Kant, Hegel, J. S. Mill and other philosophers were studied. In addition, the development of the science of political philosophy in Uzbekistan and the issue of necessary political literature for political scientists were also touched upon.

Kalit so‘zlar: siyosat falsafasi, siyosiy falsafa, N.Machiavelli, G.Gerder, siyosiy tafakkur

Ключевые слова: политическая философия, политическая философия, Н. Макиавелли, Г. Гердер, политическое мышление

Key words: political philosophy, political philosophy, N. Machiavelli, G. Herder, political thinking

KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekiston va butun jahonda siyosiy jarayonlar manzarasi shiddatli ravishda o‘zgarib bormoqda. O‘zbekistonning tashqi siyosati ochiqlik va ko‘p tomonlama konstruktiv munosabatlarga asoslangan holda olib borilmoqda.

Har bir siyosiy islohot va o‘zgarishlar inson, jamiyat va davlatning umumiy, mushtarak manfaatlaridan kelib chiqib amalga oshirilmoqda. Mana shunday siyosiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda fuqarolarning siyosiy ongi va bilimni chuqurlashtirish hamda malakali siyosatshunoslarni tayyorlash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Siyosatshunoslik sohasi O‘zbekistonda nisbatan yosh sohalar qatoriga kiradi. Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab mazkur yo‘nalish doirasida respublikamizning bir qator oliy o‘quv yurtlarida siyosatshunoslik faniga ixtisoslashtirilgan fakultet va kafedralar faoliyat ko‘rsatib, siyosatshunoslik diplomiga ega bo‘lgan yuzlab mutaxassislar tayyorlanib kelindi.

O‘zbekistonda siyosatshunos kadrlarni tayyorlash, ularning bilim va dunyoqarashini oshirish ishlari 2019-yilga kelib o‘zining yangi bosqichiga chiqdi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 29-yanvardagi “Siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4139-sonli Qarori [1] siyosiy fanlar sohasida kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish, fuqarolik jamiyati, milliy davlatchilikning siyosiy asoslarining shakllanishi va rivojlantirish sohasida kompleks tizimli tadqiqotlar olib borish, globalashuv sharoitida davlatning ichki va tashqi siyosatini amalga oshirish, shu asosda ijtimoiy – siyosiy islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar va dasturlarni ishlab chiqishda muhim tarixiy hujjat bo‘ldi.

SIYOSAT

Qaror asosida 2019-2020-o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim tizimida "Siyosatshunoslik" bakalavriat yo'nalishi, "Amaliy siyosatshunoslik" magistratura mutaxassisligi va "Siyosiy fanlar" sohasida tayanch doktorantura va doktorantura ixtisosligi doirasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash belgilab berildi.

Siyosatshunos kadrlarni tayyorlashda, ularga o'qitilayotgan fanlarning ahamiyati va bugungi zamonaviy davr talabiga mosligi muhim sanaladi. Chunki har bir bo'lajak siyosatchi dunyoda kechayotgan siyosiy jarayonlarni mustaqil tahlil qilishi, hodisalarning sabablari va ularni keltirib chiqaruvchi oqibatlarni prognozlashtira olishi talab etiladi. Buning uchun siyosiy fanlar ichida siyosatni falsafa bilan birgalikda tushuntiradigan fan sohasi siyosat falsafasining amaliy ahamiyati oshib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Siyosatni falsafiy tushunish insoniyat intellektual tarixining ilk bosqichlariga mansub. XVI–XIX asr boshlari faylasuflari asarlarida (N.Makiavelli, T.Gobbs, J.Lokk, Monteske, I.Kant, Gegel, J.S.Mill va boshqalar) siyosat falsafiy tahlilning bevosita va juda muhim predmetiga aylangan. Siyosiy falsafa real hayotiy davlatni boshqarish muammolarini, odamlarga ta'sir o'tkazish usullarini o'rganadi. Xususan, siyosiy falsafaning ko'zga ko'ringan namoyondasi Nikkola Makiavelli atrofida voqealikka realistik munosabatni ilgari suradi va u siyosiy falsafani real asoslarda o'rgangan birinchi faylasuf hisoblanadi. Misol uchun, u inson xarakteri tabiatan yovuzlikka moyil ekanligini, odamlar o'zlaridagi xudbinlik va shaxsiy manfaatlariga ko'ra umumiy tarzda yashashlari qiyin ekanligini, undagi egoizmni jilovlab turish uchun maxsus tashkilot – davlat yaratilishi lozimligini ta'kidlaydi. Shuningdek, N.Makiavelli har qanday rahbar shaxs o'z qo'l ostidagi odamlarning mulkiy va shaxsiy hayotiga tajovuz qilmasligi kerak deb hisoblaydi.

N.Makiavelli davlat boshqaruvi uchun qonunlar bilan bir qatorda armiyani ham birinchi o'ringa qo'yadi va milliy armiya tarkibi xalq vakillari orasidan bo'lishi, yollanma qo'shinlar va zodagonlardan iborat bo'lmasligi kerakligini ta'kidlaydi.

Ma'lumki, siyosat falsafasi tushunchasi XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab ijtimoiy fanlarda keng qo'llanila boshlangan. Ijtimoiy fanlarda siyosat falsafasi iborasini birinchi bo'lib ishlatgan olim G.Gerder bo'ladi. [2] XIX asrda ijtimoiy-gumanitar fanlarning differensiallashuvi jarayonida siyosiy va falsafiy masalalarning falsafiy bilimlardan ajralishi (institutionalizatsiyasi) asta-sekin sodir bo'la boshlaydi va nisbatan mustaqil fan sifatida shakllanadi.

XX asrda siyosiy falsafa siyosiy va falsafiy bilimlarning kerakli sohasiga aylandi. K.Shmitt, L.Straus, X.Arendt, I.Berlin, J.Rols, O.Geff kabi G'arb olimlari hozirgi siyosiy falsafa uchun klassik hisoblangan qator ilmiy asarlarni yaratdilar. Ularning asarlarida etakchi g'oya siyosiy falsafaning asosiy tushunchalari hisoblangan "erkinlik", "hokimiyat" va "adolat" tushunchalaridir. Aynan shu konseptual tushunchalar siyosiy va falsafiy fikrlarning predmet sohasini, asosiy yo'nalishlari va muammolarini belgilab bergan.

XX asrning ikkinchi yarmida siyosatning falsafiy tahlilini bildirish uchun "siyosat falsafasi" atamasi faol qo'llanila boshlandi. Siyosat falsafasi siyosatning umumiy qonuniyatlarini ochib berish, uning rivojlanishining ichki mantig'ini, jamiyat hayotining boshqa sohalari – iqtisodiy, ma'naviy va ijtimoiy sohalari bilan aloqalarini oydinlashtirishdan iborat fan tarmog'i hisoblanadi. [3]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ilmiy adabiyotlarda "siyosat falsafasi" atamasi ko'pincha "siyosiy falsafa" atamasi bilan bir-biriga mos keladi. Ushbu atamalarning o'zaro bog'liqligi haqidagi savolga zamonaviy olimlarning munosabati turli xildir. Ba'zi olimlar bu tushunchalar o'rtasida hech qanday alohida farqni ko'rmaydilar va ularni haqiqatda bir xil deb ishlatadilar. Boshqa olimlar esa bunday farqlarni "siyosat falsafasi", falsafaning, falsafiy bilimlarning bir qismi sifatida ko'rib chiqilishida deb farqlaydilar.

"Siyosat falsafasi"ni falsafaning siyosiy hayot sohasiga tatbiq etilishi sifatida talqin qilish mumkin, "siyosiy falsafa" esa siyosatning o'z-o'zini aks ettirishi, uning o'zi haqidagi "ichki" bilimidir. Birinchi tushuncha siyosatchining falsafasiga qo'yilgan savollarni hal qiladi, ikkinchisi esa falsafa siyosatga qo'yadigan savollarni ochib beradi.

Demak, "siyosat falsafasi" va "siyosiy falsafa" har qanday holatda ham bir-biri bilan chambarchas bog'langan ilmiy bilish sohalari, chunki ularning o'zaro bog'lanishi ma'no farqini qayd etmaydi, faqat fikrni, yo'nalishni belgilashdagi farqni ifodalaydi.

Siyosiy falsafa ko'pincha to'g'ri siyosiy tartibni ishlab chiqish va siyosiy hokimiyatni optimal tashkil etish bilan bog'liq savollarga javob izlaydigan me'yoriy siyosiy nazariya sifatida ta'riflanadi. Bu siyosiy faoliyat shaklining mazmuni hokimiyatning mohiyatini, siyosiy tanlov va yo'nalishlarni ochib beradigan bilimlar tizimi hisoblanadi.

Siyosiy falsafa uchta asosiy shaklda namoyon bo'ladi: konstruktivizm (siyosiy tuzilmaning optimal modelini yaratish), artikulyasiya (muayyan tushunchaning mazmuni va ma'nosini ochib berish), mavjud falsafiy va siyosiy matnlarni sharhlash. [4]

Hozirgi kunda "Siyosat falsafasi" siyosatning tabiatini o'rganadi. Siyosat falsafasining asosiy kategoriyalariga siyosiy ontologiya, siyosiy aksiologiya, siyosiy epistemologiya va siyosiy metodologiyalar kiradi.

Siyosat falsafasi insoniyat faoliyatining shunday qirralarini qamraydiki, unda jamiyatda mavjud siyosiy qarashlar, siyosiy axloq va siyosiy me'yorlar aks etadi. Fanning asosiy refleksiyasi siyosiy dunyo hisoblanadi. Siyosiy dunyoda kechayotgan siyosiy jarayonlarni anglash, ularga falsafiy tafakkur orqali baho berish va tahlil etish siyosatshunoslarning asosiy xususiyatlaridan biridir.

Siyosat falsafasi fanining mohiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilar ekanmiz, bu fan zamonaviy siyosatshunos kadrlarning ilmiy-falsafiy dunyoqarishini shakllantirishda ahamiyati yuqori ekanligidan dalolat bermoqda. Ko'plab oliy o'quv yurtlarida, jumladan, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Siyosatshunoslik fakulteti talabalari uchun siyosat falsafasi fani umumiy fan bloki doirasida o'qitilib kelinmoqda. [5]

Bundan tashqari, Evropaning yuqori reytingda turuvchi Southampton universitetida ham siyosatshunos kadrlarni tayyorlashda, ularning siyosiy ongini oshirishda "siyosiy tafakkur" (siyosiy falsafa) moduli o'qitilmoqda. [6]

Bugungi kunda yurtimizda siyosatshunoslik yo'nalishiga bo'lgan e'tibor oshganligi bois, shu sohadagi kadrlarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga bo'lgan talab ham oshib bormoqda. Talabalarga o'qitilayotgan fanlar doirasi zamonaviy dunyoning siyosiy manzarasini to'liq qamrab olishi barobarida, ularni tahlil etish va tushuntirib bera olishida ham muhim hisoblanadi.

Shu bois, siyosat falsafasi talabalarga insoniyatning siyosiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga qo'shgan falsafiy-siyosiy fanlar bo'yicha zarur bilimlarni egallash imkoniyatini yaratishi lozim. Shuningdek, falsafiy-siyosiy fikrning rivojlanish tarixi, siyosat falsafiy tahlilining o'ziga xos xususiyatlari, zamonaviy siyosat falsafasining asosiy yo'nalishlari va muammolari bilan tanishtirish kabi vazifalarni bajarishi lozim hisoblanadi.

Umuman olganda, "siyosat falsafasi" fanini o'qitish orqali bo'lajak siyosatshunoslarda quyidagi kompetensiyalar shakllanadi:

birinchidan, kasbiy faoliyatda olingan bilimlardan foydalanish, siyosatni falsafiy tahlil qilish usullarini ilmiy va pedagogik faoliyatda qo'llay olish;

ikkinchidan, turli manbalardan olingan ma'lumotlar bilan ishlash, murakkab muammolarni hal qilish, siyosiy masalalar bo'yicha yozma va og'zaki muloqotga kirisha olish;

uchinchidan, fikrlashning mustaqilligi va tanqidiyligi, mustaqil o'rganishga intilish, munozarali masalalarni muhokama qilishda ustunlik va raqiblarning dalillarini idrok etish.

XULOSA

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning uyg'un kechishini ta'minlash, siyosat sub'ektlari faoliyatining mahsuldorligini oshirish, hokimiyat vakillari bilan fuqarolarning muloqotini samarali tashkil etish uchun ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga to'g'ri ta'sir ko'rsatish va ularni samarali boshqarishni o'rganish talab etiladi. Xususan, bu jarayonlar bevosita siyosiy fanlar tarmog'ini kengaytirishni hamda siyosat falsafasi fanini rivojlantirishni taqozo etadi.

O'zbekistonda siyosiy fanlar sohasini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

▪ siyosatshunoslik fanining shakllanishida hamda siyosatshunos-mutaxassislarni tayyorlashda falsafa fanining o'rni katta. Siyosat falsafasi fani aynan siyosatshunoslik va falsafa fanlarining o'zaro integratsiyasi natijasida yuzaga kelgan bo'lib, ushbu fan siyosatshunos talabalarning etuk mutaxassis bo'lib shakllanishida katta o'rin tutadi. Shuning uchun bu fan tarmog'ini yo'nalish doirasida kengroq o'qitish zarur;

SIYOSAT

▪ siyosatshunoslarni tayyorlashda o'zbek tilida darslik va o'quv qo'llanmalarining yetarli emasligi tadqiqotchi va talabalarni xorijiy adabiyotlarga qaramlikni oshirmoqda. Shuning uchun o'zbek tilida siyosiy fanlar bo'yicha yangi avlod darsliklarini yaratish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4139-sonli Qarori. 2019 yil 29 yanvar. [Elektron resurs]. <https://lex.uz/docs/4182353>
2. Гердер И. Идеи о философии истории человечества. – Москва, 1977.
3. Гобозов И.А. Философия политики. – Москва: 2002.
4. Алексеева, Т.А. Что такое политическая философия? Статья первая // Политика. 2003. № 3. – С. 119–157.
5. Учебный план МГУ. Интегрированная подготовка (по направлению подготовки «Политология» (Общая политология). [Электрон ресурс]. 2024 йил 3 январь. <https://polit.msu.ru /students/uchplan/>
6. Modules of Southampton University Political Science Course. [Elektron resurs]. Murojaat sanasi: 2024 yil 3 yanvar. <https://www.southampton.ac.uk/courses/politics-degree-bsc#modules>
7. Urmonalievich, Y. S. (2021). The essence of socio-cultural design in the process of scientific management of the society. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(7), 236-243.
8. Юлдашев, С. У. (2021). Давлат ва жамият бошқарувида кадрлар инновацион фаолиятини юксалтиришнинг ижтимоий-маданий хусусиятлари. *НамДУ илмий ахборотномаси-Научный вестник НамГУ*.
9. Qaxharova, M. (2021). SOCIAL-SPIRITUAL ENVIRONMENT OF SOCIETY AND SPIRITUAL IDEAL. *Oriental Journal of Social Sciences*, 30-36.
10. Qaxharova, M., & Raximshikova, M. (2020). MORAL CONTINUITY IS A SOCIAL-PHILOSOPHICAL, HISTORICAL PHENOMENON. *The Light of Islam*, 2020(3), 103-112.
11. Qahhorova, M. (2021). SOCIO-PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF THE SOCIO-RELIGIOUS SPIRITUAL AND MORAL ENVIRONMENT. *Theoretical & Applied Science*, (6), 135-138.
12. Qaxharova, M. (2021). Social-spiritual environment of society and spiritual ideal. *Oriental Journal of Social Sciences*, 30-36.
13. Kakhharova, M. (2018). Question of studying personal spiritual and moral development. *Eastern European Scientific Journal*, (6).